

**QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI
BERUNIY TUMANI
HOKIMINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
BERUNIY RAYONI
HAKIMININ
SHESHIMI**

2021 - yil 2 - dekabr

127-13-182-Q/21

Beruniy tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 695-sonli hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 24-noyabr kungi 165-13-0-Q/21-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-sentyabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida va fuqarolar ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, hududda ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 695-sonli qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 24-noyabr kungi 165-13-0-Q/21-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 24-noyabrdagi 147-13-0-Q/21-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

1) 2022-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasining tibbiyot muassasalarida sifatli ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish maqsadida respublika tibbiyot muassasalari quyidagilarni:

har bir respublika tibbiyot muassasalari yo‘nalishi bo‘yicha hududda yurak qon-tomir, o‘tkir ichak, buyrak, o‘pka, onkologik va boshqa turdagi kasalliklarni barvaqt aniqlash va yuqori texnologik davolash usullarini amaliyotga tatbiq qilishni;

republika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiallariga tashkiliy- metodik rahbarlik qilish, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda sayyor maslahatlar, mahorat darslari, birinchi navbatda eng murakkab holatlarda hududiy filiallarda yuqori texnologiyali jarrohlik muolajalarini muntazam ravishda o‘tkazib borishni;

republika tibbiyot muassasalari, shuningdek, xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining malakali mutaxassislarini Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tizimli ravishda jalb qilish choralarini ko‘rishni nazarda tutgan holda

1-ilovaga muvofiq birlashtirilganligi;

2) quyidagilar:

mazkur qarorning 1-bandida nazarda tutilgan ishlarni amalga oshirish uchun respublika tibbiyot

muassasalari, shuningdek, xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining malakali mutaxassislari jalb qilinishi;

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan shakllantiriladigan ro'yxatga asosan respublika tibbiyot muassasalari, shuningdek, xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari malakali mutaxassislarining temir yo'l transporti bilan Qoraqalpog'iston Respublikasiga kelib-ketishi bilan bog'liq xarajatlari Davlat byudjeti

mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilanganligi;

bunda, Sog'liqni saqlash vazirligi va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida 100 foiz miqdorda oldindan to'lov amalga oshirilishi hamda har oy yakuni bilan haqiqatda foydalanilgan chiptalardan kelib chiqib, o'zaro hisob-kitoblar olib borilishi;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasining tibbiyot muassasalarida sifatli ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi tibbiyot muassasalariga xarid qilinayotgan diagnostik va tibbiy uskunalardan to'laqonli hamda samarali foydalanish maqsadida 2022 yildan boshlab mahalliy byudjet hisobidan reaktiv, reagentlar, sarflov anjomlari hamda servis xizmatlari uchun qo'shimcha mablag' ajratishni nazarda tutish topshirilganligi;

4) Sog'liqni saqlash vazirligiga:

ikki hafta muddatda 2022 yil uchun hamda kelgusi yillar uchun har yilning 10-yanvarigacha Qoraqalpog'iston Respublikasiga respublika tibbiyot muassasalari, shuningdek, xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari malakali mutaxassislarining temir yo'l transporti bilan kelib-ketishi uchun ularning ro'yxatini "O'zbekiston temir yo'llari" AJga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga taqdim qilib borish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda jalb qilingan xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining malakali mutaxassislariga hududdagi davlat tibbiyot muassasalariga tegishli bo'lgan moddiy-texnik baza, zamonaviy asbob-uskunalar va boshqa texnik vositalardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish topshirilganligi;

5) "O'zbekiston temir yo'llari" AJga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan ro'yxatga asosan respublika tibbiyot muassasalari, shuningdek, xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining malakali mutaxassislarini "Toshkent-Nukus-Toshkent" yo'nalishidagi chiptalar bilan ta'minlab borish topshirilganligi;

6) Moliya vazirligiga Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda:

Qoraqalpog'iston Respublikasining tibbiyot muassasalarida sifatli ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun 2022-yil respublika byudjeti parametrlarida Sog'liqni saqlash vazirligiga nazarda tutilgan mablag'lar doirasida mazkur qarorning ilovasiga muvofiq mablag' ajratilishini;

mazkur qarorning 2-bandi uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan mutaxassislarning "Toshkent-Nukus-Toshkent" yo'nalishi bo'yicha temir yo'l chiptalari xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan mablag'larni 2022-yildan boshlab Sog'liqni saqlash vazirligi xarajatlar smetasida nazarda tutilishini ta'minlash topshirilganligi;

bunda:

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ilovada ko'rsatilgan jihozlarni markazlashgan tarzda xarid

qilishga doir ishlarni amalga oshirish bo'yicha "O'zmedimpeks" mas'uliyati cheklangan jamiyati buyurtmachi etib belgilanganligi;

Sog'liqni saqlash vazirligi xaridlarni davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashi;

7) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan hududga jalb qilingan respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, shuningdek, xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining malakali mutaxassislarining yashash, ovqatlanish va boshqa zarur xarajatlarini qoplash choralari ko'rish topshirilganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

3. Tuman hokimligi (D.Abdullaev), Tuman tibbiyot birlashmasi (D.Palvanov), Moliya bo'limi (O.Mambetsaburov):

tibbiyot muassasalariga xarid qilinayotgan diagnostik va tibbiy uskunalardan to'laqonli hamda samarali foydalanish maqsadida 2022-yildan boshlab mahalliy byudjet hisobidan reaktiv, reagentlar, sarflov anjomlari hamda servis xizmatlari uchun qo'shimcha mablag' ajratishni nazarda tutsin;

mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan hududga jalb qilingan respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, shuningdek, xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining malakali mutaxassislarining yashash, ovqatlanish va boshqa zarur xarajatlarini qoplash choralari ko'rsin.

4. Tuman tibbiyot birlashmasi (D.Palvanov) jalb qilingan xususiy tibbiyot tashkilotlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining malakali mutaxassislariga hududdagi davlat tibbiyot muassasalariga tegishli bo'lgan moddiy-texnik baza, zamonaviy asbob-uskunalar va boshqa texnik vositalardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari D.Abdullaev zimmasiga yuklatilsin.

Beruniy tumani hokimi



A.Saparbayev